FARG‘ONA VODIYSI ANTIK DAVRI MODDIY MADANIYATINI O‘RGANISHDA SHO‘RABOSHOT YODGORLIGINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Karimova Nazokat Voxidjon qizi
– Farg‘ona davlat unversiteti
tayanch doktoranti
knazokat68@gmail.com
Tel. 91-660-54-74.

Annotatsiya

Mazkur maqolada Farg‘ona vodiysining antik davr moddiy madaniyatini o‘rganishda Sho‘raboshot yodgorligining tutgan o‘rni va ilmiy ahamiyati kompleks tarzda tahlil qilinadi. Arxeologik qazilmalar natijasida aniqlangan kulolchilik mahsulotlari, turar-joylar tizimi, mudofaa inshootlari hamda xo‘jalik faoliyati asosida hududda urbanizatsiya jarayonlari va madaniy rivojlanish bosqichlari yoritiladi. Sho‘raboshot madaniyati Eylaton va Marhamat madaniyatlari bilan qiyosiy tahlil qilinib, uning o‘ziga xos xususiyatlari aniqlanadi. Tadqiqot natijalari Sho‘raboshot yodgorligi Farg‘ona vodiysida antik davr madaniy taraqqiyotida muhim bosqich bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *Sho‘raboshot, Farg‘ona vodiysi, antik davr, moddiy madaniyat, kulolchilik, urbanizatsiya, arxeologiya, Eylaton, Marhamat.*

KIRISH

Hozirgi kunda tarix fanini taraqqiy etishi natijasida ko‘plab savollar yuzaga kelmoqda, masalan shaharsozlik an’analari rivojlanishiga nimalar sabab bo‘ldi? Markaziy Osiyoda ilk shaharsozlik an’analari qachondan taraqqiy eta boshladi? Insoniyatning rivojlanish bosqichlarini ayrim jihatlarini shaharlarsiz tasavvur etish juda qiyin. Shaharlarni rivojlanishi aholi turmush tarzini tubdan o‘zgartirib yuboragan. Asosan savdo va xunarmandchilikni har tomonlama gullab yashnashi, urbanizatsiya jarayonlariga o‘zaro bog‘liqlikda rivojlanishiga olib keldi. Har bir hududni iqlimi, mintaliteti va yashash turmush tarzidan kelib chiqib shu shaharning rivojlanishiga o‘z ta’sirini o‘tkazgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

1954–1957-yillarda kichik olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida Sho‘raboshot turar joylari uch bosqichda moddiy madaniyat yodgorligi vazifasini bajarganligi aniqlandi. Madaniy qatlamning yo‘qligidan kelib chiqqan holda, aholining turar joylarini g‘arbiy qismida antik davrda aholisi yashamaganligi ma’lum bo‘ldi. Balki bu hudud o‘sha davrda aholi uchun boshpana va chorva mollari uchun qo‘ra vasifasini bajargan deyish ham mumkin. Asosiy ishlar shimoli-g‘arbiy burchakdagi tepaliklarda amalga oshirildi. Ikkita quyi qatlam binolarining qoldiqlari va ko‘plab topilmalar topildi. Sharqiy III manzilgohda qal’a turar joy qismida qazish ishlari olib borilgan. Stratragrafiyani o‘rganish uchun qal’aga chuqur yotqizilgan va 9 m gacha

chuqurlashtirilgan, ammo materik qatlamiga etib bormagan. Qal’aning tepaligining umumiy balandligi 12 m hisoblanadi.

N.Gorbunova[3] tomonidan Eylatondan keyingi Marhamat davridan oldingi davrni Sho‘raboshot davri deb fanga kiritish ilgari surildi. Arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan materiallar Eylaton majmuasidan keyin to‘g‘ridan-to‘g‘ri Sho‘raboshot majmuasiga o‘tilganligi haqida fikrlarni kelib chiqishiga sabab bo‘ldi. Eylaton davri yodgorliklaridan topilgan bo‘yalgan sopol idishlar Sho‘raboshot davri yodgoliklarida ham uchaydi. Lekin undan keyingi Marhamat davri yodgorliklarida hech qachon uchramaydi [4] . Keyingi yillarda S.Qudratov [5] tomonidan olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida Eylaton shahristonida xumdonlar aniqlandi. Xumdonlarning ichida alohida sopol idishlar to‘plamlari ochib o‘rganildi. Shu asosida S.Qudratov[6] birinchi martta ilk temr va antik davrga oid sopollar majmuasini ajratdi. Natijada Eylaton va Sho‘raboshot sopol idishlar majmuasi sopollari farqini ko‘rsatdi. Keyingi tadqiqotlar berilgan xulosalarni to‘g‘riligini tasdiqlamoqda [7] . Marhamat yodgorliklarida ham Sho‘raboshot sopollari borligi aniqlandi. Bu xulosalar buyumlarning o‘xshashligi va har ikkala yodgorlikda o‘xshash bo‘yalgan kulolchilikning tarqalishini ko‘satadi. Lekin Eylaton va Sho‘raboshot yodgorliklari o‘rtasidagi farq shunchalik muhimki buni rivojlanishning oddiy davomi deyish mumkin emas. Eng yorqin ko‘rsatkich bu ochiq rangli va qizil rangli dastgohli idishlar o‘rtasida farqlar sezilganligidadir. Shu asosda madaniyatlar orasidagi keskin farqni kuzatsa bo‘ladi. Agar taqqoslab chiqadigan bo‘lsak, Sho‘raboshot va Oqtom yodgorliklarida dafn marosimlari (marhumning holati, g‘arbiy yo‘nalishi, qabrga qo‘chqor go‘shti qo‘yilishi taqinchoq va asbob–uskunalari to‘plami) va qolipli idish tovoqlarni ma’lum darajada o‘xshashligini sezish ham mumkin. Eylaton madaniy yodgorligidan hech qachon qizil angobli sopol idishlar uchramagan. Shuning uchun Oqtom yodgorligi Sho‘raboshatdan oldingi davrga taalluqli deb hisoblash mumkin[8].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Sho‘raboshot davri yodgorliklari sopol buyumlari boshqa yodgorlik sopollari orasida o‘zining be’takror bezaklariga ega. Idish sirtidagi turli naqshlarning berilishi hamda ularni tayyorlash uslubi jihatdan ajralib turadi. Qadimgi Farg‘ona vodiysini xatto siyosiy markazlaridan biri ham bo‘lishi mumkin bo‘lgan Sho‘raboshot madaniyati yodgorligi hisoblanadi[9]. Bu madaniyat Qirg‘iziston Respublikasi O‘sh viloyati O‘zgan shahridan 8 km shimoliy g‘arbda Yassi daryosining o‘ng sohilidan joy olgan. Sho‘raboshot shahar harobalari bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganiladi. Sho‘raboshot shahri miloddan avvalgi IV asrdan milodiy I asrlarga oid bo‘lib, maydoni 1400-500 m o‘lchamda tashkil etib,70 gektardan ortiq hududni o‘z ichiga oladi[10].

[3] Горбунова Н.Г., 1973. Некоторые итоги исследования поселений Ферганы кушанского времени // ТД сессии, посвящ. итогам полевых археологических исследований 1972 года. Ташкент. С.133-134.
[4] Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы. М., Наука; 1962.
[5] Кудратов С.С., 1991. Ранние гончарные печи с городища Эйлатан // ОНУ. № 3. С. 30-42.
[6] Кудратов С.С., 1992. Поселения левобережья р. Нарын в Фергане (III в. до н.э. - V в. н.э.).: Автореф. дисс... канд. ист. наук. Санкт-Петербург. – С. 23.
[7] Кудратов С. Ранние гончарные печи с городища Эйлатан // ОНУ № 3. Ташкент. 1991. – С. 30-42.
[8] Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы. М., Наука; 1962. –С.304-305
[9] Шермуҳаммадов Б., Исамиддинов М., Алохунов Фарғона тарихи (Қадимги тош, бронза, илк темир ва антик даври) I жилд Фарғона – 2026. – Б.126
[10] Заднепровский Ю.А. Древнеземледедь ческая култура Ферганы: Масква; Наука; 1962. –С.304-305

Sho‘raboshot yodgorliklaridan keyingi Marhamat [11] yodgorliklari bilan solishtirilganda, butunlay boshqacha holat sezilib turadi. Bu yodgorliklarning barchasida kulolchilikning bir xil na’munalari kuzatiladi, lekin ular turli raqamlar bilan ko‘rsatiladi. Sifat bilan miqdorning ortishi kulolchilikning bosqichma-bosqich taraqqiy etishini nomoyon etadi. Farg‘ona vodiysi madaniyatini qadimgi rivojlanishi izchil davom etganligi isboti.

Sho‘raboshot davri xo‘jaligi asosini tashkil qiluvchi chorvachilik hisoblanib, hayvon suyaklarining asosiy qismi mayda shoxli, qoramol, ot va tuyalarga tegishli. Sho‘raboshot davri materiallarni bronza davriga oid Chust[12] va Dalvarzin manzilgohlari bilan solishtirilganda Chust[13] madaniy yodgorligi bilan katta o‘xshashlikni, deyarli bir xilligi kuzatiladi. Shunday qilib bronza davridan boshlab Farg‘onada chorvachilik xo‘jaligiga bosqichma – bosqich o‘tib borilganligi seziladi[14].

Aholi turar joylariga yaqin joyda, O‘zgan-arig‘ining chap qirg‘og‘idagi qoyadan 3,3 m chuqurlikdan qolipli ko‘za va qizil kosa bilan qadimiy dafn etilgan qabr qoldiqlari topilgan. Qoradaryo qishlog‘ining qadimgi aholisi o‘liklarni shu yerga ko‘mgan bo‘lishi mumkin.

VI tipda Farg‘onadagi eng katta qadimiy davrdagi Sho‘raboshot aholi turar joylari maydoni 70 gektarni tashkil etadi. U daryoning qirg‘og‘ida joylashgan. Yassi, O‘zgan shahridan 10 km shimoli g‘arbdan sharqqa cho‘zilgan to‘rt qismdan iborat. Aholi turar joylari uch tomonidan mudofaa devorlari bilan o‘ralgan. Faqat daryo va botqoq sel bo‘ylab istehkomlar qurilmagan. Sharqiy tepalik qal’asi alohida ajralib turadi va u maxsus devorlarga ega bo‘lgan. Bu yerda baland tepalik ham bo‘lib, bu joydan qal’a qoldiqlari topilgan. Aholi turar joyi atrofida bir qancha tepaliklar bo‘lib, ular Sho‘raboshot dehqonchilik hududini tashkil qilgan.

Sho‘raboshot davri. III olib borilgan tadqiqotlar natijasida bu hududni turar joy qismida, pastki qatlamida oz miqdorda Eylaton madaniyati va Oqtom materiallariga o‘xshash bo‘yalgan sopol buyumlar topilgan. Ushbu turdagi sopol buyumlar faqat sharqiy aholi turar joylari topilganligi sababli, dastlabki turar-joy Eylaton davri oxriga tegishli bo‘lib, aynan shu hududda paydo bo‘lgan, deb taxmin qilish mumkin. Shimoliy mudofaa qal’asini o‘rganish jarayonida Sho‘raboshot davri sopol idishlari bo‘lgan bir nechta qabrlar tadqiqot davomida topilib o‘rganilgan.Taqdim etilgan ma’lumotlar aholi turar joylari xilma-xilligidan va shuningdek, ularning funksional maqsadlariga ko‘ra farqlanishidan dalolat beradi. Bularning hammasi, shubhasiz, antik davr ijtimoiy-iqtisodiy hayotininig oldingi davrdan keskin farq qiluvchi tomonlarini o‘zida aks ettiradi. Shunisi ahamiyatliki ko‘pgina Sho‘raboshot aholi turar joylarida mudofaa istehkomlari vazifasini bajargan.

[11] Матбабаев Б.Х., 2001. Древнеферганское государство Давань // Очерки по истории государственности Узбекистана. Ташкент. С. 25-38.
[12] Спришевский В.И., 1963. Чустское поселение (К истории Ферганы в эпоху бронзы). Автореф. дисс... канд. ист. наук. Ташкент. – С.17.
[13] Спришевский В.И., 1950. Дневник работ археологического отряда Памиро-Ферганской экспедиции в 1950 г. Архив музея истории. Ташкент.
[14] Заднепровский Ю.А. Древнеземледедь ческая культура Ферганы: Масква; Наука; 1962. –С.304-305

Qadimiy istehkomlar, sun’iy inshootlardan tashqari, tabiiy istehkomlar sifatida relefdan keng foydalanilgan. Bu holat, Qo‘shbuloq va Qoradaryo[15] aholi turar joylarida asosan kuzatiladi. Ikkinchisida g‘arbiy devorga tutashgan katta tepalikdagi qal’ada kichik tadqiqot ishlari olib borilgan. Bu tepalik qo‘rg‘on sifatida qabul qilingan, chunki aholi turar joylari relefidan boshqa ko‘zga ko‘ringan qismlari saqlanmagan. Qal’aning ustki platformasi trapetsiya shaklida bo‘lib, o‘lchami 20x20 m nisbatan kichik o‘lchamlari u shahar hukumdorining qarorgohi bo‘lib, xizmat qilganligini bildiradi. Ichkari qismi maxsus bo‘linma bilan, ikki qismga bo‘lingan. Shiftni ko‘tarib turuvchi to‘rtta ustun uchun polda maxsus chuqurchalar topilgan. Tashqi devor qalinligi 2,8 m hisoblanadi.

XULOSA

Sho‘raboshot sopollari o‘z navbatida Marhamat qizil sayqalli sopollari bilan juda o‘xshash bo‘lgan xattoki bezak uslublari ham bir – biridan uncha farq qilmaydi. Bu davrda har ikkala hududlarda ham qizil angobdan foydalanish asosiy uslub vazifasini o‘taganligini kuzatiladi. Idishlarga bir xil uslubda tirnalgan bezak berish keng tarqalgan.

O‘zgan vohasining markazi bo‘lgan, Sho‘raboshot tumanida yotgan III tip aholi turar joyi Tenesh yodgorligi bo‘lib, 5 gektarni tashkil qilgan. Bundan tashqari IV tip qal’alar Dunbuloq, Qo‘shbuloq, Dehqon, Janubiy O‘zgan, Shimoliy To‘rtko‘l yodgorliklarini o‘z ichiga olib kelgan. Ularning barchasi Yassi va Qoradaryo sohillarida bir–biridan 5 km ga yaqin masofada joylashgan bo‘lib vohaning mudofaa devorini tashkil etdi[16].

V tip mustahkam istehkomlar va qal’aga ega bo‘lgan aholi turar joylari bo‘lib, maydoni 10 gektarni tashkil qildi. Bu yodgorlikning markazi Qoradaryo hisoblanib, shu bilan birgalikda bu vohaning juda katta markazi ham hisoblanadi. Jamoa turar joyi to‘rtburchak shaklda joylashgan bo‘lib, g‘arb va sharq jarliklar bilan tutashgan holda uchraydi. Shimoldan xandaqlar bilan janubdan esa ayvon chetlari bilan o‘rab olingan. Yodgorlik aholisi minoralari bo‘lgan, mudofaa devori bilan muhofaza qilingan. G‘arbiy devorning o‘rtasida baland tepalik bo‘lib, qal’a qoldiqlari saqlanib qolingan. 1958–1966-yillarda[17] arxeologik tadqiqotlar olib borilishi natijasida yodgorlik trapetsiya shaklida (400 m^2), turar-joy yuzasidan 10 metr balandlikda topiladi. Yuqori to‘rt qatlamning qurulish hamda, bir qancha qatlamlar qoldiqlari topilgan. Ichki xona devor bilan ajratilgan, shiftni qo‘llab quvvotlovchi ustunlari to‘rtta bo‘lib unda chuqurchalar mavjud. Devorlari 60x30x10 sm o‘lchamdagi g‘ishtlardan qurilgan. Bu g‘ishtlarda mahsus belgilar mavjud. Yodgorlikning birida xumxonaning bir qismi topilgan bo‘lib, u joyda to‘rtta xumxona tozalangan. Qo‘rg‘onning tashqi devori 38x23 sm o‘lchamdagi g‘ishtlardan ikki qator paxsa devorlari o‘rnatilgan. Qishloqning turar–joy qismidagi ikkita tepalikda ham, qazishmalar olib borilgan. Qurilish qoldiqlari topildi, hamda pol qismlari va o‘choqlari o‘rganildi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

[15] Горбунова Н.Г., 1996. Женские украшения Кугайско-карабулакской культуры Ферганы // Древний и средневековый Кыргызстан. Бишкек. С. 77-92.

[16] Заднепровский Ю.А. Древнейшие государства Кавказа И Средней Азии: Масква.; Наука;1985: –С. 308.

[17] Заднепровский Ю.А., 1973. Типология и динамика развития городских поселений древней Ферганы // ТД сессии, посвяш. Итогам полевых археологических исследований 1972 года. Ташкент. С.88-90.

1. Горбунова Н.Г., Женские украшения Кугайско-карабулакской культуры Ферганы // Древний и средневековый Кыргызстан. Бишкек. 1996.
2. Горбунова Н.Г., Некоторые итоги исследования поселений Ферганы кушанского времени // ТД сессии, посвящ. итогам полевых археологических исследований. Ташкент. 1972.
3. Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы. М., Наука; 1962.
4. Кудратов С. Ранние гончарные печи с городища Эйлатан // ОНУ № 3. Ташкент. 1991
5. Кудратов С.С., 1992. Поселения левобережья р. Нарын в Фергане (III в. до н.э. - V в. н.э.).: Автореф. дисс... канд. ист. наук. Санкт-Петербург.
6. Заднепровский Ю.А., 1973. Типология и динамика развития городских поселений древней Ферганы // ТД сессии, посвяш. Итогам полевых археологических исследований .Ташкент. 1972.
7. Заднепровский Ю.А. Древнейшие государства Кавказа И Средней Азии: Масква.; Наука;1985.
8. Спришевский В.И., Чустское поселение (К истории Ферганы в эпоху бронзы). Автореф. дисс... канд. ист. наук. Ташкент. 1963.
9. Спришевский В.И., Дневник работ археологического отряда Памиро-Ферганской экспедиции в. Архив музея истории. Ташкент. 1950.
10.Шермуҳаммадов Б., Исамиддинов М., Алохунов Фарғона тарихи (Қадимги тош, бронза, илк темир ва антик даври) I жилд Фарғона – 2026.
11. Матбабаев Б.Х., Древнеферганское государство Давань // Очерки по истории государственности Узбекистана. Ташкент. 2001.